

QANDAY QILIB MILLIY QADRIYATLARIMIZNI SAQLAB

QOLISHIMIZ MUMKIN

Ummatova Xurshida

SHDPI 1-bosqich talabasi

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, oila, xalq, jamoaviylik, daxldorlik, qadriyat, inson.

Ключевые слова: национальные ценности, семья, народ, общественность, причастность, ценность, человек.

Qadriyatlar, urf odatlar-barcha millatga elatga xos. Milliy qadriyatlarimiz xalqimizning turmush tarzida namoyon bòladi. Nafaqat, òzbek xalqining, balki barcha xalqlarning òz an'analari mavjud bòlib, bular bizga òsha xalqni turmushi, madaniyati, odatlarini kòrsatib bera oladi. Bilamizki, qadriyatlar jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy tarraqiyoti mahsulidir. Shuning uchun qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, òsha zamonda yashagan insonlarning orzu umidlari, istaklari, xayollari òz aksini topadi. Qadriyat-bu tarixiy tarraqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan ma'naviy boylik, deb ham ayta olamiz.

Qadriyatlar inson uchun ahamiyat kashf etib, insonni takomillashuvida muhim òrin tutadi. Milliy òzbek qadriyatlarimiz juda kòp. Ular turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, an'alarimiz va òzlini anglashga yordam beradi va bu borada xalqni - xalq, millatni - millat sifatida birlashtiradi. Zero, òz qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq (jamoat) olomonga aylanmaydi: buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, iatiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi. Qadriyatlarimiz bu -bizning bayram tadbirlarimiz, hatto, kattalarni hurmat qilishimiz kichiklarni izzat qilishimiz hamma hammasidir. Bizning yurt buyuk tarixga ega. Kòp asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash dunyo ilm-fani

va madaniyati rivojiga ulkan hissa qòshgan ajdodlarimizning bebaho merosini òrganish, qadriyatlarimizni saqlab qolishimiz, ularga nisbatan daxldorlik hissini tuyushimiz lozim. Ya'ni, bu bizning xalq, bizning an'analarimiz bizning òzligimiz, bizning òtmishimiz va kelajagimiz bularning barchasi bizga tegishli. Milliy qadriyatlarni qudratli manbai va azaliyurf-odatlarimizdan biri oila va qarindoshlik munosabatlar odobidir. Bu ham qadriyatlarning bir kòrinishidir.

Afsuski, jadal rivojlanayotgan jahon taraqqiyotida juda kòp qadriyatlarimiz yòqolib ketmoqda. Jumladan, Tòg'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida shunday sòzlar bor. "Xalq nimasi bilan xalq? Òzurf-odatlari bilan xalq. Kòp urf - odatlarimizni birovlar òziniki qilib olishdi, kòplarini eskilik sarqiti deb tashladik. Bu ketishda òzimizni ham podadan farqimiz qolmaydi". Bu asarda bosh qahramon Bòri polvonning shu kabi ta'sirli òy-xayollari keltirilgan. Shu orqali adib òquvchiga qadriyat, milliylik tushunchalarini yetkazadi. Agar yoshlarni shu ruhdatarbitalasak, ularda qadriyatlarga nisbatan hurmat uygònadi. Barchamizga ayon hozirgi kunda dunyo miqiyosida bashavqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstrimizm, terrorizm, giyohvandlik odam savdosi, noqonuniy migratsiya kabi xavf-xatarlar kuchayib odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni ijtimoiylashtirish, uni har tomonlama shakllantirish, kamolga yetkazish, rivojlantirish eng muhim vazifa sifatida insonni tarbiyalash, unga ta'lim berish, bilimdon avlodni tarbiyalash, ayniqsa, dolzarb masala

Inson tirik ekan, yangilikka intilib yashaydi. Lekin, yangilik deb òzlikdan kechib bòlmaydi. Òzligimiz bu-milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizdir. Ularni ommalashuvi, òsishi, dunyoga yoyilishi kòproq yoshlar qòlida. Demak, biz uchun qadri bòlgan qadriyalarimizni asraylik, ularga huroamat bilan qaraylik.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1 I.Q Tursunovich Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Cyberleninka.ru 03 2021y

2 N.Tòymurodova Òquvchilarni milliy qadriyatlar asosida taebiyalash-davr talabi.
Openscience.uz 02.2022

